

QORAQALPOG'ISTONNING MUHIM ORNITOLOGIK HUDUDLARI VA ULARNING QUSHLARNI MUHOFAZA QILISHDAGI AHAMIYATI

Ametov Y.I., Mambetkarimova G.K., Abdikarimova M.K.,
Orinbayev D.J., Abdireymova N.B.

Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti, O'zbekiston
raf_78@inbox.ru

Annotatsion: Currently, 177 species of birds belonging to 17 genera and 42 families have been found to live in Jiltirbas Lake and its surroundings. 20 species of common species are included in the Red Book of the Republic of Uzbekistan, 8 of them are included in the Red List of the International Threatened Species. These are: pink merganser *Pelecanus onocrotalus*, lesser black grebe *Phalacrocorax pygmeus*, white-tailed goose *Anser erythropus*, white-eyed goose *Aythya nyroca*, mallard *Oxyura leucocephala*, common grebe *Circus macrourus*, long-tailed osprey *Haliaeetus leucoryphus* and white-tailed osprey *Haliaeetus albicilla*.

Muhim ornitologik hududlar (MOH) – bu xalqaro darajada qushlarni asrash va bioxilma-xillikni qo'llab-quvvatlash uchun real ahamiyatga ega bo'lgan maydonlar. Bunday maydonlarni aniqlash va tavsif berish tashabbusi Butunjahon qushlarni muhofaza qilish Assotsiatsiyasiga (BirdLife International) tegishli va u 1980 yilning o'rtalarida tashkil topgan. Bugungi kunga kelib dunyoda bunday maydonlarning 12 725 tasi aniqlandi. MOH larni identifikatsiya qilish xalqaro tan olingan miqdoriy va sifatli kriteriyalar yordamida amalga oshiriladi [2].

O'zbekistonda muhim ornitologik hududlarni inventarizatsiya qilish 2005 yili Buyuk Britaniya qushlarni himoya qilish Qirollik jamiyatining (RSPB) metodologik va texnik qo'llab-quvvatlashida boshlandi. 2008 yili O'zbekistonda 48 MOH aniqlandi va Bird Life International Sekretariati tomonidan tasdiqlandi hamda «O'zbekistonning muhim ornitologik hududlari» kitob ko'rinishida rus va ingliz tillarida chop etildi [2].

2010-2011 yillari O'zbekiston qushlarini muhofaza qilish jamiyati (UzSPB) «Conservation Leadership Programme va Save our Species Programme» (CLP-SOS) dasturlari qo'llab-quvvatlashida yana 3 ta hudud aniqlandi va MOH ning xalqaro tarmog'iga kiritildi [4]. Shuning 2 tasi – Akpetki ko'llar tizimi va atrofidagi Orolqum cho'li hamda Sariqamish ko'li atrofidagi Ustyurt platosi Qoraqalpog'iston hududida joylashgan.

2013 yilda Xalqaro Orolni qutqarish jamg'armasi O'zbekiston agentligining qo'llab-quvvatlashida Mashanko'l va Xojako'l ko'llarida ornitologik tadqiqotlar olib bordik va natijada 2016 yilda bu hudud ham MOH ning xalqaro tarmog'iga kiritildi [1].

Muhim ornitologik hududlarni inventarizatsiya qilish, ularni monitoring qilish va asrash bo'yicha choralarni ishlab chiqish bioxilma-xillikni hududiy muhofaza qilishning zamonaviy xalqaro usullaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 52 ta muhim ornitologik hududlar mavjud bo'lib, ularning 7 tasi (13,46%) Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasining muhim ornitologik hududlari

MOH No	MOH nomi	Koordinatasi	Maydoni, ga
Uz001	Saygachiy buyurtmaxonasi	44°47' N 57°47' E	511028
Uz002	Sudochoye ko'li	43°29' N 58°31' E	46467
Uz003	Jiltirbas ko'li	43°30' N 59°49' E	29723
Uz004	Assake-Audan chuqurining shimoliy qismi	42°35' N 56°18' E	5288
Uz049	Akpetki ko'llar tizimi va yondosh Orolqum cho'li	43°39' N 60°22' E	39146
Uz050	Sariqamish ko'li va yondosh Ustyurt platosi	42°12' N 57°20' E	95974
Uz052	Mashanko'l va Xojako'l ko'llar kompleksi	43°39' N 60°22' E	5070

Ushbu muhim ornitologik hududlardan Jiltirbas ko'llar tizimi, Sudochoye ko'llar tizimi, Mashanko'l va Xojako'l ko'llari kompleksida muntazam ornitologik tadqiqotlar olib bormoqdamiz. Quyida biz Jiltirbas ko'llar tizimi misolida tadqiqot natijalarini bayon qilamiz.

Jiltirbas ko'llar tizimi. 2008 yilda Jiltirbas ko'li IBA Uz dasturi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra dunyoning muhim ornitologik hududlari ro'yxatiga kiritildi (kod Uz003, muallif - Mitropolskiy O.V.). Bu ko'l quyidagi xalqaro kriteriyalarga to'g'ri keladi: A1 - TMXI ro'yxatidagi 1 yoki undan ko'p global havf ostidagi turlarning ma'lum sondagi individlarining muntazam bo'lishi; A4i – suvda suzuvchi va suv atrofi qushlarining to'planishini hosil qiladigan bir yoki undan ko'p turning biogeografik populyatsiyasidan 1 yoki ko'p foizni qo'llab-quvvatlashi; A4iii – 20000 dan ortiq suv-botqoq qushlarining to'planishi. Ushbu kriteriyalar bo'yicha nafaqat qushlarni, balki bioxilma-xillikning boshqa komponentlarini asrash uchun ham hududning ahamiyatini ko'rsatadi.

Oxirgi 2 yilda (2023-2024 yy.) Jiltirbas ko'liga olib borilgan ornitologik tadqiqotlarimiz bu ko'lining suv va suv atrofi, shuningdek kamyob va yo'qolib ketish arafasida turgan qushlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynashini ochib berdi.

Jiltirbas ko'li Mo'ynoq tumanining Qozoqdaryo massivida, Orol dengizining eski bo'g'oz o'rnida, Chimboy ovulidan 50 km shimolda, Qozoqdaryo ovulidan 5 km sharqda joylashgan. U Jiltirbas, Termenbes, Uzinkayir, Yerjanatau, Bayeke-Aydin, Kuat ko'llar tizimi va boshqa har-xil kattalikdagi ko'llardan tashkil topgan.

Jiltirbas ko'li – 15 ming ga maydonga ega bo'lgan yirik suv havzasi bo'lib, suvning o'rtacha chuqurligi 0,70-3,80 m. Ko'lining asosiy suv manbai - KC-1, KC-2, KC-3 kollektorlari, Qozoqdaryo kanali va termal skvajina suvlari hisoblanadi. Ko'l ma'lum darajada chuchuk suvga ega, lekin suvi ichishga yaroqsiz. Bu yerda ko'lni sobiq dengizdan ajratuvchi katta damba qurish bo'yicha faol ishlar olib borilgan.

Ko'lda Qozoqdaryo davlat o'rmon-ovchilik xo'jaligi joylashgan. Shu bilan birga ko'l Qoraqalpog'iston iqtisodiyotida muhim baliq xo'jaligi ahamiyatiga ega. Olingan ma'lumotlarimiz bo'yicha ko'l sohilining katta qismida qamishli *Phragmites australis*, qo'g'ali *Typha angustifolia* va qamish-qo'g'ali *Phragmites australis* – *Typha angustifolia* assotsiatsiyalar keng tarqalgan. Ko'lining o'zida rogolistnik *Ceratophyllum demersum*, dengiz nayadasi *Najas marina*, rdest *Potamogeton pectinatus*, kichik rdest *Potamogeton pusillus*, dengiz ruppiyasi *Ruppia maritima* keng tarqalgan. Ko'l cheti va dambasida oqbosh *Karelinia caspia*, oqtikan *Lycium ruthenicum* o'sadi. Qolgan fitotsenozlar tor maydonni egallaydi va cheklangan miqdorda uchraydi.

Jiltirbas ko'lining qirg'og'i pichanzor bo'lib yahshi yaylov hisoblanadi. Qamishning o'rtacha hosildorligi 90-140 s/ga ni tashkil etadi. Qamishzorlar bir vaqtning o'zida ondatra, yovvoyi cho'chqa, qamish mushugi, qushlar va boshqa hayvonlarning ko'payish joy sifatida muntazam xizmat qiladi. Ko'l qirg'oqlari ko'pchilik suv-botqoq qushlarining, ayniqsa uzun oyoqlilar, g'ozsimonlar va rjankasimonlar uchun muhim oziqlanish o'ri sanaladi. Bu yerda rjanka va loyxo'raklar oilasi har-xil turlari (*Tringa totanus*, *Tringa ochropus*, *Tringa glareola*, *Tringa stagnatilis*, *Philomachus pugnax*, *Calidris ferruginea*, *Calidris alpina*, *Limosa limosa* va бошқ.) ommaviy oqimi kuzatildi. №1 va №2 suv inshootlarda qishloq qaldirg'ochi *Hirundo rustica* va hind chumchug'ining *Passer indicus* uyalarini aniqlandi.

Kunduz kungi sanoq marshrutida qirg'oq yaqinidagi qamish-qo'g'azorda *Acrocephalus scirpaceus* va turkiston to'qay chumchug'i *Acrocephalus stentoreus*, mo'ylabdor chittak *Panurus biarmicus* va to'qay dehqonchumchug'ini *Emberiza schoeniclus* kuzatdik. Aytib o'tish joiz, ko'l dambasida qirg'oq qaldirg'ochi *Riparia riparia* va ko'k kurkunakning *Merops persicus* koloniyasi uya qurishi kuzatildi.

Jiltirbas ko'liga yaqin hududlar - shimolda va shimoli-sharqda joylashgan qumli va glinisli cho'llardan tashkil topgan. Tuprog'i - qumli, qumloq tuproqli, glinisli va suglinisli. Bu yerda qalin qora saksovull (*Haloxylon aphyllum*), yulg'un-qorabaroqli (*Tamatix hispida*-*T.laxa*-*T.amosissima*-*Halostachys belangeriana*), solerosli (*Salicornia europaea*), yantoq-yulg'un-qorabaroqli (*Alhagi pseudalhagi* - *Tamatix hispida*, *Telongata* - *Halostachys belangeriana*) assotsiatsiyalar keng uchraydi.

Bu hududda hamma joyda o'ynoqi toshsichumchuq *Oenanthe isabellina* va so'fitor'g'aylar *Alaudidae* oilasi vakillari kuzatildi. Bir necha bor qorabovur *Pterocles orientalis*, suvga yaqin joylarda ko'k kurkunak *Merops persicus*, yirtqich qushlardan suvqiyg'ir *Pandion haliaetus*, soz bo'ktargisi *Circus aeruginosus*, burgut *Aquila chrysaetos*, sariq sor *Buteo rufinus* va miqqiy *Falco tinnunculus* uchradi.

Bu hududda yulg'un, saksovl va butalar keng tarqalgan bo'lib, ular chumchuqsimonlar (*Passeriformes*) uchun uya qurish, tuxum qo'yish, yashash va dam olish uchun qulay joylar hisoblanadi. Jumladan, butazorda uya qurish vaqtida janub kurgaligi *Hippolais rama*, bo'z qarqunoq *Lanius excubitor pallidirostris* va tuqay bulbuli *Erythropgia galactotes* uchragan bo'lsa, tungi vaqtlarda yilqichi *Burhinus oedicnemus*, boyo'g'li *Athene noctua* va oddiy tentakqush *Caprimulgus europaeus* kuzatildi.

Hozirgi vaqtda Jiltirbas ko'li va uning atrofida 17 turkum va 42 oilaga mansub 177 tur qushning yashashi aniqlandi. Umumiy turlarning 20 ta turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga [3] kiritilgan bo'lib, ularning 8 turi TMXI ning qizil ro'yxatiga [5] kirgan xalqaro havf ostidagi turlar sanaladi. Bular: pushti saqoqush *Pelecanus onocrotalus*, kichik qoravoy *Phalacrocorax pygmeus*, chinqiroq g'oz *Anser erythropus*, oqko'z *Aythya nyroca*, oqbosh o'rdak *Oxyura leucocephala*, dasht bo'ktargisi *Circus macrourus*, uzundumli suvburgut *Haliaeetus leucoryphus* va oq dumli suvburgut *Haliaeetus albicilla*.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Jiltirbas ko'li qushlar faunasi uchun juda katta rol o'ynaydi. Ko'l ko'chib yuruvchi qushlar uchun dam olish va ovqatlanish, shu bilan birga kamyob va mahalliy suv-botqoq qushlarining uya qurish maskani bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun 2024 yili Jiltirbas ko'li beshinchi bo'lib Ramsar konvensiyasiga kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Аметов Я.И., Матекова Г.А., Тен А.Г., Озерный комплекс Машанкуль и Хожакуль-новая важнейшая орнитологическая территория в Южном Приаралье//Респуб. научно-практ. конференция “Современные проблемы сохранения редких, исчезающих и малоизученных животных Узбекистана». Ташкент, 2016. - С. 4-8.

2.Важнейшие орнитологические территории Узбекистана. Под редакцией Р.Д.Кашкарова, Д.Р.Уэлша и др. - Ташкент, 2008. - 192 с.

3.Красная книга Узбекистана. Животные. - Ташкент, 2019. Том 2. - 215 с.

4.Ten A., Kashkarov R., Matekova G., Zholdasova I., Turaev M. New Important Bird Areas in Uzbekistan // Sandgrouse, 2012. V.34. - №2. - P. 137-147.

5.www.iucnredlist.org

6. Ruyiddinov A. X. et al. QASHQADARYO VILOYATI ORNITOFAUNASINING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 1. – №. 12. – С. 503-506.

7. Kh. Boymurodov, S. Khorazov, G. Bobonazarov, & B. Davronov (2024). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE POPULATION INDICATORS OF THE SPECIES SINANODONTA GIBBA AND SINANODONTA RUERORUM OF THE UNIONIDAE FAMILY IN THE WATER ECOSYSTEMS OF THE SYRDARYO AND SANGZOR RIVERS. Science and innovation, 3 (D5), 13-18. doi: 10.5281/zenodo.11137993

8. Rakhmatullaev A., Gafurova L., Egamberdieva D. Ecology and role of earthworms in productivity of arid soils of Uzbekistan //Dynamic Soil, Dynamic Plant. – 2010. – Т. 4. – №. 1. – С. 72-75.

9. Рахматуллаев, А. Ю., Давронов, Б. О., Норкобилова, З. Б., & Омонова, Н. Р. (2021). Фауна Дождевых Червей В Узбекистана. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 310-314.